O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KECHKI TA’LIM VA MAGISTRATURA FAKULTETI

*Qo‘lyozma huquqi asosida*
*UDK: 33M:658.562*

XUDOYBERDIYEV SAFAR ASADULLO O‘G’LI

# MAHSULOT EKSPORTINI OSHIRISH VA SIFAT JIHATIDAN O‘ZGARTIRISHNING ASOSIY MEXANIZMLARI

Mutaxassislik: 70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** **i.f.d., prof. D.Nasirxodjayeva**

**Toshkent-2025**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida bajarilgan.

**Ilmiy rahbar** _____ **i.f.d., prof. D.Nasirxodjayeva**

**Kafedra mudiri** _____ **i.f.n., prof. X.S.Asatullayev**

**Kechki ta'lim va magistratura**

**fakulteti dekani** _____ **i.f.d., prof. J. Karimqulov**

Men, Nudoyberdiyev Safar Asadullo o'g'li shu-r
ushbu magistrlik dissertasiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertasiya ishi Yakuniy davlat attestasiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

23 may 2025-yil

**TOShKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**
**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI BAYONNOMASI**

**Toshkent shahar** **2025 yil "11" aprel**

Iqtisodiyot fakul'teti 2-kurs 70310102-"Iqtisodiyot" tarmoqlar va sohalar mutaxassisligi MEKP-03 guruhi magistranti Кудойбергенов Сафарбек Асадулло ўғли ning "Маҳсулот экспортини диверсификация ва экспорт имкониятлари ўзгаришининг асосий механизмлари" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

Диссертация иши - умумий иқтисодиёт ихтисослиги. Мавзини ўрганиш бобу, таҳлиллар-ги, мақолалари ўрни келтирилган. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати, тузилиш ва тахлилий кисм талаб даражасида эмас.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi**) Тавсия этилади.

Komissiya raisi: Асатуллаев Ж.С.

Komissiya a'zolari: Раупов А.Ф.
Одилова Р.Б.
Шарипов Ж.Б.
Исмоил М.А.

**Izoh:**

1. Magistrlik dissertatsiya dastlabki himoyasi talab qilingan xujjatlar to'liq rasmiylashtirilgan va taqdim etilgan holdagina amalga oshiriladi.

## Annotatsiya

Mazkur magisrlik dissertatsiya ishining asosiy maqsadi — mahsulot eksportini oshirish va sifat jihatdan oshirishga qaratilgan mexanizmlarni chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va zamonaviy ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida ularni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Shuningdek, tadqiqotda xalqaro mahsulotlar eksport tajribani o‘rganish orqali milliy iqtisodiy sharoitga mos bo‘lgan strategiyasini ishlab chiqish, iqtisodiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladigan mexanizmlarni asoslab berish ko‘zda tutiladi. Ushbu maqsad doirasida O‘zbekistonda ishlab chiqilayotgan milliy mahsulotlari eksport va sifat darajasiga ta’sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilinadi, mavjud ichki va tashqi chaqiriqlarga mos strategik yondashuvlar ishlab chiqiladi, mahsulot sifati va eksportini oshirish muhitini rivojlantirishga xizmat qiluvchi korxona va tashkilotlar faoliyati o‘rganiladi va takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlanadi.



**Kalit so’zlar:** Mahsulot eksporti va sifati, O’zbekistonning milliy mahsulotlari, milliy iqtisodiy sharoit, xalqaro raqobatdoshchilik, global, eksport-importdarajalari.

## Abstract

The main goal of this master's these is to conduct a thorough analysis of mechanisms aimed at increasing product exports and improving their quality, identify existing problems and develop ways to improve them based on modern scientific and practical approaches. The study also aims to develop a strategy for exporting products that is appropriate for national economic conditions by studying international product export experience, and to substantiate mechanisms that serve to ensure economic stability and innovative development. Within the framework of this goal, factors affecting the level of exports and quality of national products produced in Uzbekistan are systematically analyzed, strategic approaches are developed in accordance with existing internal and external challenges, the activities of enterprises and organizations that serve to develop an environment for increasing product quality and exports are studied, and areas for improvement are identified.

**Keywords:** Product export and quality, national products of Uzbekistan, national economic conditions, international competitiveness, global, export-import levels.

## MUNDARIJA

**KIRISH**.....3

**I BOB. MAHSULOT EKSPORTINI OSHIRISH VA SIFAT JIHATIDAN O'ZGARTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI**.....8

1.1 Mahsulot eksportini oshirish va sifat jihatdan o'zgartirishning iqtisodiy mohiyati .....8

1.2 Eksport mahsulotlarini sifat jihatdan o'zgartirish jarayonlarida davlat texnologiya siyosatining o'rni.....19

1.3 Mahsulot sifatini eksport salohiyatini oshirishga ta'siri.....28

**Birinchi bob bo'yicha xulosa**.....41

**II BOB. O'ZBEKISTONDA MAHSULOT EKSPORTINI OSHIRISH VA SIFAT JIHATDAN O'ZGARTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI**.....44

2.1 Mahalliy xom ashyo orqali yuqori texnologiyaga asoslangan eksportni amalga oshirishning hududiy tahlili.....44

2.2 Sanoat korxonalari eksportini oshirish jarayonlarini iqtisodiy-matematik tahlili.....50

2.3 Eksport mahsulotlarini sifat jihatidan takomillashtirishning xorijiy mamlakatlar amaliyoti va undan foydalanish imkoniyatlari.....59

**Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**.....68

**III BOB. O'ZBEKISTONDA MAHSULOT EKSPORTINI OSHIRISH VA SIFAT JIHATDAN O'ZGARTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**.....69

3.1 Mahalliy xom ashyoga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirish.....69

3.2 Sanoat tarmoqlari eksport salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish.....74

**Uchinchi bob bo'yicha xulosa**.....81

**Xulosa va takliflar**.....82

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**.....85

# KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Xalqaro iqtisodiy aloqalar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etib, mamlakat iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Jahon tajribasidan bizga ma‘lumki, hozirgi kunda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri tashqi savdo xususan, eksport salohiyati va eksport diversifikatsiyasi hamda bu orqali mamlakatda tez fursatlarda iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Eksport diversifikatsiyasi hamda uning salohiyatini oshirish mamlakatning eksport qiladigan tovar va xizmatlar assortimentini kengaytirishni anglatadi. Bu jarayon orqali bitta yoki bir nechta asosiy eksport tovarlariga qaramlik kamayib, yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar kirib keladi. Shuningdek, mamlakatda milliy valyuta zaxiralari oshadi, milliy iqtisodiyotga qo‘shimcha resurslar taqdim etiladi, ko‘plab ish o‘rinlari yaratiladi, mamlakat o‘zida mavjud bo‘lmagan resurslar va xom ashyo bilan ta‘minlanadi, bu esa umumiy ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Eksport daromadlari import xarajatlarini qoplab, savdo balansini ijobiy holatda ushlab turish bilan birga, xalqaro bozor talablariga moslashish orqali narxlarni optimallashtiradi. Yurtimizda so‘nggi yillarda tashqi savdo diversifikatsiyasi, xususan, eksport faoliyatini olib boruvchi kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash va rag‘batlantirishga doimiy e‘tibor qaratilib, ularning eksport salohiyatini yanada kengaytirish, zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatish maqsadida bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Bu orqali ushbu yo‘nalishda bajarilayotgan keng ko‘lamli ishlar, ilg‘or hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bular jumlasiga, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”dagi 28-maqsadida eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport